

Assessment of the socio-economic potential of the region and its level of competitiveness

D.A. Karimov¹ 

¹Institute for Macroeconomic and Regional Studies, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The article presents a scientific analysis aimed at assessing the socio-economic potential of the region and its level of competitiveness, using the example of the Surkhondaryo region. The analysis covers the main structural components of competitiveness, the region's role in interregional labor division, trends in changes in the economic structure, and the competitiveness levels of various regions. Based on these analyses, scientific and practical recommendations for the development of the regional economy have been formulated.

Keywords: Surkhondaryo, regional economy, competitiveness, regional potential, labor division, structural changes

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshlik darajasini baholash

Karimov D.A.¹ 

¹Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshlik darajasini baholash maqsadida Surxondaryo viloyati misolida ilmiy raqobatbardoshligining asosiy tarkibiy tuzilishi, hududlararo mehnat taqsimotidagi o'rni, iqtisodiyoti tarkibining o'zgarish tendensiyalari, mintaqalarin raqobatbardoshlik darajasi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Mazkur tahlillar natijasida mintaqqa iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, mintaqqa iqtisodiyoti, raqobatbardoshlik, mintaqqa salohiyati, mehnat taqsimoti, tarkibiy o'zgarish

1. Kirish

O'zbekistonda hududlarni mutanosib rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash muhim ustuvor yo'nalishlar qatoriga kiritilgan bo'lib, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida "hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 barobarga oshirish" maqsadli ko'rsatkich sifatida belgilangan[1].

Mustaqillik yillarida, ayniqsa oxirgi 2015-2022-yillarda mintaqalarni mutanosib rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan holda, mamlakatda o'ziga xos milliy mintaqaviy siyosatni amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Buni mintaqalarda rivojlanishning turli samarali shakllariga e'tibor qaratildi. Ular joylarda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar, farmatsevtika zonalar, kichik sanoat zonalar, yoshlar zonalar, tadbirkorlar zonalar, tarmoqlar va sohalar bo'yicha klasterlar, innovatsion markazlar va hududar, texnoparklar, aqlii xudud, shahar kabilar bilan asoslash mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Mintaqqa iqtisodiyoti masalasida bir qator xorijlik iqtisodchi Armstrong, J.Taylor[2], M. Edgar, G. Frank[3], V.I. Butov, V.G.Ignatov, N.P.Ketova[4], G. P. Ermoshina, V. J. Pozdnjakov[5], G. G Fetisov., V. P Oreshin[6] kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Shuningdek, mahalliy olimlardan I.S. Abdullayev[7], T.M. Axmedov[8], A.Qadirov, M. Askarova[9], A.M.

Sadiqov[10], B.T, Salimovlar[11] ham mazkur mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshlik darajasini baholash uchun mazkur tadqiqot ishida reyting, nisbiy ustunlik, taqqoslash, kuzatish, statistik usullaridan foydalanilgan.


Shu bilan birgalikda, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshlik darajasini baholash orqali mintaqaning barqaror rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish bugungi kundagi muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Tahlil va natijalar

Mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligi asosan hozirda shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat darajasi, mavjud raqobat afzalliklardan samarali foydalanish va mintaqqa iqtisodiyotining samaradorligini tashkil etadi. (1-rasm).

 <https://orcid.org/0009-0001-9588-8916>





1-rasm. Mintaqa raqobatbardoshligining asosiy tarkibiy tuzilishi¹

Mazkur tadqiqot ishida Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshlik darajasini baholash Surxondaryo viloyati misolida amalga oshirildi.

2017-2023-yillarda erishilgan natijalarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki Surxondaryo viloyatida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha salbiy siljish yuz berganini ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Surxondaryo viloyatining hududlararo mehnat taqsimotidagi o'rni (aholi jon boshiga)²

№	Ko'rsatkichlar	2017y.	2023y.	O'zgarish
1	Yalpi hududiy mahsulot	13	14	-1
2	Sanoat ishlab chiqarish	14	14	-

3	Qishloq xo'jaligi	7	8	-1
4	Xizmatlar	14	14	-
5	Investitsiyalar	6	13	-7
6	Chakana savdo aylanmasi	6	7	-1
7	Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	14	14	-1

Jumladan, YAXM indeksi 0,550 dan 0,504 ga, sanoat 0,198 dan 0,170 ga, qishloq xo'jaligi 1,183 dan 0,988 ga tushishi mintaqada samaradorlik past ekanligini ko'rsatmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatning bunday shakllanishi o'z navbatida viloyatni hududlararo taqqoslashdagi o'rmini yanada past darajaga tushib ketishiga sabab bo'lgan.

Viloyat hududlararo taqqoslanganda qishloq xo'jaligi va chakana savdo bo'yicha nisbatan o'rtacha o'rin bilan kifoyalanib qolmoqda. Ayniqsa investitsion faollik, yalpi hududiy mahsulot, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy sohalarida o'z mavqeining tushib ketishi, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat darajasi juda past ekanligini ko'rsatmoqda.

Bu o'z navbatida viloyat iqtisodiyotini samaradorligi mavjud nisbiy afzallikdan foydalanishda mummolar borligini ko'rsatmoqda. Xozirda viloyat asosan iqtisodiyot tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi sohasida salohiyatni mavjudligi bilan hududlararo taqsimotda ma'lum mavqega ega xolos. Ushbu xulosani viloyatning iqtisodiy tarkibini shakllanishida ham ko'rish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti tarkibining o'zgarish tendensiyalari (foiz)³

№	Ko'rsatkichlar	2017y.	2018y.	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y. o'zgarish
1	Yalpi xududiy mahsulot	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
	uning tarkibi:							
2	Qishloq va o'rmon xo'jaligi	40,3	40,0	39,9	39,5	39,2	39,3	-1,0
3	Sanoat va qurilish	15,9	16,0	16,1	16,3	16,4	16,2	+0,3
4	Xizmatlar	43,8	43,7	43,0	44,2	44,4	44,5	+1,7

Oxirgi 6 yilda viloyat iqtisodiyoti tarkibida deyarli o'zgarishlar ro'y bermagan. Iqtisodiyot tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligining o'rni yuqori bo'lib, mamlakat miqyosida ixtisoslashuv jihatidan agrar hududlar qatoriga kiradi (yalpi hududiy mahsulotda qishloq xo'jaligi ulushi eng yuqori bo'lib, hududlararo taqqoslashda viloyat birinchi o'rinni egallaydi). Alohida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda 2023-yil natijalariga ko'ra viloyat kartoshka (11,0 foiz), savzavotlar (10,0 foiz), mevalar (7,0 foiz), bug'doy (9,0 foiz), go'sht (8,0 foiz), sut (8,2 foiz) bo'yicha nisbatan mamlakatdagi ulushi yuqori bo'lgan. Ushbu holat qishloq xo'jaligining ayrim mahsulotlarini ishlab chiqarishda o'ziga xos afzalliklar mavjudligini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida mahsulotlarning raqobatbardoshligi va nisbiy afzalliklarini viloyatning eksport salohiyati orqali umumiy baholash mumkin. 2017-2023-yillarda viloyat eksport xajmi 1,5 barobar ko'paygan. Ushbu davrda sanoat mahsulotlari

eksportining jami eksportdagi ulushi 34,0 foizdan 40,0 foizga yetgan va xajmi 17,0 foizga oshgan. Ayniqsa meva-sabzavot eksportini deyarli 3,0-marta oshganini alohida ta'kidlash kerak, ushbu mahsulotlarni yetishtirishda sifatida va bahosida nisbiy afzallik borligini ko'rsatmoqda.


Asosan mahsulotlar Qozog'iston (24,0 foiz), Xitoy (18,6 foiz), Pokiston (18,3 foiz), Afg'oniston (12,4 foiz), Rossiyaga (12,0 foiz) eksport qilingan. Bu o'rinda qo'shni chegaradosh bo'lgan Tojikiston va Turkmanistonni eksportdagi ulushini nisbatan pastligini, shuningdek eksport va import xajmlari o'rtasidagi nisbat import foydasiga to'g'ri kelayotganligini ijobiy holat deb bo'lmaydi.

Viloyat eksport salohiyati tarkibida ma'lum o'zgarishlar yuz berayotganligi qayd qilish lozim. Eksport tarkibida meva-sabzavotlarning o'rni yuqori bo'lib (59,0 foiz), uning ulushini kamayishini salbiy holat sifatida qash mumkin. Chunki viloyatning asosiy ixtisoslashuvi tabiiy-salohiyatdan kelib chiqqan holda hozirda va kelajakda meva-sabzavotlar

¹ Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

² Manba: Davlat statistika ko'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan

³ Manba: Davlat statistika ma'lumotlari asosida hisoblangan



eksportining o'zni yuqori bo'lib qolishi obyektiv holat bo'lib, mavjud raqobat afzalliklariga asoslanadi. To'qimachilik sohasining o'zni eksportda keskin oshganligini ijobiy holat sifatida ko'rish mumkin. Oxirgi yillarda qurilish sanoati mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilgan. Ularni kengaytirish imkoniyatlari va afzalliklari to'liq ishga tushirilmagan.

Jahon tajribasida keng qo'llaniladigan "Pattern" usulbi uchta yo'nalish bo'yicha ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Ushbu usulni O'zbekiston mintaqalarini raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda 2022-yil axborot bazasidan foydalangan holda hisoblangan (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston mintqalarinin raqobatbardoshlik darajasi (Pattern uslubi)[12]

Raqobatbardoshlik darajasi bo'yicha guruhlar	mintaqalar	Iqtisodiy salohiyat indeksi	Mintaqaviy samaradorlik indeksi	Raqobat afzalliklari indeksi	Raqobatbardoshlikning umumiy indeksi
I guruh-nisbatan yuqori daraja	Toshkent shahri	0,842	0,790	0,822	0,818
	Navoiy viloyati	0,921	0,780	0,604	0,768
	Toshkent viloyati	0,654	0,672	0,610	0,645
	Buxoro viloyati	0,603	0,681	0,593	0,625
II guruh-o'rtacha daraja	Samarqand viloyati	0,452	0,610	0,571	0,544
	Andijon viloyati	0,515	0,604	0,474	0,531
	Jizzax viloyati	0,516	0,512	0,502	0,510
	Sirdaryo viloyati	0,536	0,503	0,451	0,497
	Xorazm viloyati	0,480	0,555	0,410	0,481
III guruh-past daraja	Farg'ona viloyati	0,371	0,501	0,452	0,441
	Qashqadaryo viloyati	0,392	0,490	0,417	0,433
	Qoraqalpog'iston viloyati	0,401	0,468	0,375	0,415
	Namangan viloyati	0,320	0,464	0,393	0,392
	Surxondaryo viloyati	0,292	0,315	0,305	0,304

Birinchii yo'nalishdagi iqtisodiy salohiyat indeksi mehnat resurslari, bandlik, asosiy fondlar, yer maydoni, mahalliy byudjet, investitsiyalar, yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlari asosida aniqlangan. Surxondaryo viloyati III - raqobatbardoshlik darajasi past bo'lgan, eng oxirgi o'rinni egallagan mintaqalar qatoriga kirgan. Iqtisodiy salohiyat oxirgi o'rinni egallashi yuqorida tahlil qilingan yalpi xududiy mahsulot, sanoat va qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi, shuningdek tashqi iqtisodiy aloqalar orqali ham tasdiqlangan.

Mintaqaviy samaradorlik indeksi mehnat unumdorligi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot, sanoat mahsulotlari, ish haqi miqdori kabi ko'rsatkichlar orqali hisoblangan. Surxondaryo bo'yicha samaradorlik indeksi (0,315) boshqa mamlakat xududlari bilan solishtirilgan holda eng past natijani bergan.

Umuman iqtisodiy salohiyat va iqtisodiy samaradorlik bo'yicha viloyatni raqobat orqada qolayotganligi uchun bu yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan murakkab va ma'lum muddatni talab qiladigan chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Surxondaryo viloyatini raqobat afzalliklari bo'yicha mamlakatda oxirgi o'rinni egallashda ma'lum e'tirozlar mavjud. Birinchidan hisoblashda foydalanilgan ko'rsatkichlar tizimi (bir kishiga to'g'ri keladigan asosiy fondar, investitsiyalar, temir va avtomobil yo'llari uzunligi) mintaqaviy afzalliklarni to'liq ifoda etmaydi. Ikkinchidan, nisbiy afzallikni tashkil qiluvchi asosiy transport-geografik

joylashuv, agroiklim salohiyati, mineral xom ashyo resurslari va boshqalar e'tiborga olinmaganligini ko'rsatish mumkin.

Shu sababli viloyatni tabiiy-iqtisodiy resurslar raqobat afzalliklarini hisoblashni qaytadan ko'rib chiqish, uni yangi ko'rsatkichlar bilan boyitgan holda indeksni aniqlash taklif etiladi.

Reyting usuliga muvofiq mintaqalar uchta alohida yo'nalish, ya'ni omillar asosida raqobat salohiyati, olingan natijalar asosida raqobat salohiyati va raqobatbardoshlik darajasi hisoblanadi[13].

Omillar bo'yicha aniqlangan raqobat salohiyati reytingi moliyaviy, tabiiy xom ashyo, ijtimoiy, ta'lim, innovatsiya, infratuzlma, biznes muhitining hozirgi holatini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi orqali ularning umumiy o'rni topiladi[14].

Hisoblarga ko'ra Surxondaryo viloyati oxirgi besh yilda omil bo'yicha raqobat salohiyati reytingida egallagan xozirgi (14-o'rin) o'rnida o'zgarishlar bo'lmagan. Natijaviy raqobat salohiyat reytingi inson kamoloti indeksi iqtisodiy faollik indeksi, texnologik daraja indeksi orqali aniqlangan. Ushbu reytingga ko'ra viloyat 11 o'rindan 14 o'ringa tushib ketib, eng yomon natija ko'rsatgan.

Mintaqalarni raqobatbardoshlik darajasi indeksi bo'yicha o'zgina bo'lsa ham viloyatda salbiy siljish yuz berganini ko'rish mumkin. Agarda viloyat 2016-yilda 12 o'rinda bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda 13 o'rinni egallagan.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarining raqobatbardoshlik va raqobat salohiyatini baholash reyting usuli[15]

Mintaqalar				Raqobat salohiyati (omilli)				Raqobat salohiyati (natijaviy)				Raqobatbardoshlik			
	2006	2011	2012	2014	2020	2006	2011	2012	2014	2020	2006	2011	2012	2014	2020
Qoraqalpog'iston Resp.	13	13	13	12	11	13	14	14	14	9	11	12	12	12	14



Viloyatlar:															
Andijon	9	9	10	13	13	3	3	4	4	6	3	3	2	2	4
Buxoro	11	8	8	10	7	14	6	8	7	5	7	7	7	6	6
Jizzax	8	12	11	6	6	8	9	11	10	11	6	11	13	8	8
Qashqadaryo	12	7	5	7	8	5	4	5	5	4	4	5	3	5	5
Navoiy	4	3	3	3	3	1	2	2	2	1	2	2	4	3	2
Namangan	10	11	12	9	10	12	11	9	11	10	14	9	10	14	7
Samarqand	7	10	9	8	9	9	8	6	8	8	8	8	8	9	10
Surxondaryo	14	14	14	14	14	11	12	12	13	14	12	14	14	11	13
Surdaryo	3	4	5	5	4	7	7	10	9	7	10	13	9	7	11
Toshkent vil.	2	2	2	2	2	4	5	3	3	3	5	4	5	4	3
Farg'ona	5	5	4	4	5	6	13	13	6	12	9	6	6	10	9
Xorazm	6	6	11	11	12	10	10	7	12	13	13	10	11	13	12
Toshkent sh.	1	1	1	1	1	2	1	1	1	2	1	1	1	1	1

Reyting uslubi orqali mintaqa raqobatbardoshligini aniqlash ma'lum ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan holda, uni amaliyotda qo'llash murakkab jarayondir. Ayniqsa tumanlar va shaharlar kesimida raqobatbardoshlikni aniqlashda ahborot bazasining yetishmasligi tufayli bir qator muammolarni keltirib chiqaradi[16].

Shuningdek, ushbu uslubda raqobat afzalliklariga to'la e'tibor berilmagan. Faqat tabiiy xom ashyo mineral resurslar bilan ta'minlanganligi bilan kifoyalanib qolingan. Bir qator tabiiy-iqtisodiy afzalliklar (transport-geografik joylashuv, iqlim, yer va suv salohiyati va boshqalar) reytingini hisoblaganda to'liq foydalanilmagan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda viloyat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, uning mintaqalararo ixtisoslashuvdagi, tashqi iqtisodiy aloqalarning hozirgi holati past darajada ekanligi raqobatbardoshlikni aniqlashni turli usullaridan raqobat afzalliklari to'liq aks ettirilmaganligi aniqlangan.

Xozirda birinchi navbatdagi chora-tadbirlar avvalambor mavjud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatni yanada yuqori darajaga ko'tarishda ustuvorlik mavjud nisbiy afzalliklarda samarali foydalanishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Bir qator xorij olimlari va mutaxassislarining fikriga qo'shilgan holda qoloq mintaqalar jumladan, Surxondaryo viloyatini raqobatbardoshlik darajasi avvalam bor uning tabiiy resurslar va geografik joylashuv afzalliklaridan samarali foydalanishga bog'liqligini aytib o'tishimiz lozim.

Viloyatni mamlakatning boshqa hududlardan farqligi va o'ziga xosligi, jumladan, afzalliklari uning transport-geografik joylashuvi, agroiklim sharoiti, qishloq xo'jaligi va

yer-suv resurslarining salohiyati, mineral xom ashyo bazasi, mavjud turizm va mehnat resurslaridan iborat.

Surxondaryo viloyati o'zining transport geografik joylashuvi bilan mamlakatimizda eng janubiy hudud sifatida bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan, boshqa mintaqalarning uzoqda joylashuvi aholi va iqtisodiyot uchun kerakli bo'lgan tovarlarni olib kirishda va import qilishda transport xarajatlarini ko'payishiga olib keladi. Viloyatda bu holat mahalliyalashtirish dasturiga boshqa hududlarga qaraganda ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozimligini ko'rsatadi. Hisob-kitoblarga ko'ra eng yaqin hudud bo'lgan Qashqadaryo viloyati poytaxti Qarshi shahri va Termiz shahri o'rtasidagi masofa 202 km tashkil qiladi. Mos ravishda ushbu masofa Andijon shahrigacha 1092 km, Farg'ona shahrigacha 1094 km, Namangan shahrigacha 1001 km, Nukusgacha 1010 km, Urgenchgacha 900 km, Gulistongacha 891 km, Toshkentgacha 709 km.ga teng. Surxondaryo viloyatiga tovarlarni boshqa viloyatlardan olib borishda hisoblarga ko'ra transport xarajatlari 1,5 dan 3,0 barobar yuqori bo'lishini ko'rish mumkin.

Ikkinchi tomondan viloyatni transport geografik joylashuvining o'ziga xos afzalliklari ham mavjud. Bu viloyat mamlakat hududlari orasida yagona uchta qo'shni davlatlar bilan chegaradosh (Afg'oniston, Tojikiston va Turmaniston). Ushbu holat avvalambor eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi, mahsulotlarni raqobatbardoshligiga transport xarajatlarni kamayishi hisobiga erishiladi. Xozirda bunday afzallikdan samarali foydalanilmayapti (5-jadval).

5-jadval


Surxondaryo viloyatini qo'shni davlatlar bilan tashqi-iqtisodiy aloqalari (mln.doll)⁴

№	Qo'shni davlatlar	2020y.		2021y.		2022y.	
		eksport	import	eksport	import	eksport	import
1	Tojikiston	3325,3	8084,5	1379,4	5013,8	2010,0	6015,0
2	Turkmaniston	0,0	1048,1	0,0	1423,6	0,0	1401,0
3	Afgoniston	36611,8	169,5	17966,1	518,4	250,4	150,2

Mavjud salohiyatga qaramasdan qo'shni davlatlar bilan viloyat o'rtasidagi tovar ayirboshlash salbiy dinamikaga ega.

Asosiy hamkor sifatida Tojikistonni ko'rish mumkin. Turkmanistonga deyarli eksportni yo'qligini ham aytib

⁴ Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida xisoblangan



o'tish lozim. Xozirda viloyatda qo'shni davlatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibi turlicha bo'lib, ularning hajmi ham yuqori darajada emas (5-jadval va 6-jadval).

6-jadval

Surxondaryo viloyatidan Tojikiston davlatiga qilingan eksport tovarlari⁵

t/r	Tovar nomi	Og'irligi (tn)	Qiymati(ming AQSH dollarida)
1	Ko'chatlar	153	28
2	Bug'doy	103	44
3	Donli chiqindilar	93	46
4	Plastmassa mahsulotlar	81	36
5	Pomidorlar	67	53
6	Urug'lik (zira, zigir, kungoboqar, paxta va boshqalar)	66	73
7	Toshlarni qaya ishlovchi uskunalari	59	45
8	Kunjara	49	18
9	Sabzi	48	6
10	Gips mahsulotlari	45	7
11	Plenka	43	109
12	Yog'och plitalari (MDF)	42	12
13	Yong'oqlar	26	27
14	Uzum	23	10
15	Tuxumlar	21	116
16	Sut mahsulotlari	18	55
17	Qora metallar (quvurlar, profililar, armatura. Relslar, mixlar va x.k)	18	7
18	Gilam, palaslar	16	17

7-jadval

Surxondaryo viloyatidan Afg'oniston davlatiga qilingan eksport tovarlari⁶

t/r	Tovar nomi	Og'irligi (tn)	Qiymati(ming AQSH dollarida)
1	Loviya	51 292	71997
2	Un	30608	8 389
3	Konservlangan sabzavotlar	3 519	2 449
4	Kartoshka	3 448	443
5	Piyoz	2 605	299
6	Yong'oqlar	2 401	2 512
7	Mosh	2 318	2 547
8	Paxta ip kalavasi	1 256	3 496
9	Urug'lik (zira, zig'ir, kungaboqar va boshqalar)	939	882
10	Ehtiyot qismlar	795	266
11	Kungaboqar yog'i	649	706
12	Uzum	639	868

⁵ Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan

13	Etilen	594	571
14	Margarin	443	926
15	Uy qushlari	386	296
16	Jun va junli mahsulotlar (matolar)	309	28
17	Tuxumlar	267	226
18	Osh tuzi	256	9
19	Keramik idishlar	212	88
20	Qalampir	142	115
21	Sovun	118	69
22	Zamazkalar, shpatlevkalar	113	11
23	Bug'doy	100	22

Tojikistonga eksport tovarlar orasida asosan qishloq ho'jaligi mahsulotlari keng o'rin egallagan. Bular bug'doy, ko'chatlar, pomidor, kunjara, sabzi, yong'oq, uzum, tuxum, sut mahsulotlari va boshqalar. Shuningdek, oxirgi yillarda plyonka, yog'och plitalari, gilamlar kabi mahsulotlarni eksport qilish boshlangan.

Afg'oniston bilan tovarayirboshlash 2022-yildan boshlab, u yerdagi vaziyatni o'zgarishi tufayli keskin kamaygan. Asosiy eksport tovarlarga loviya, un, kartoshka, piyoz, mosh, yong'oq, paxta ip kalavasi, qalampir, sovun, osh tuzi va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Oxirgi yillarda Turkmanistonga ham eksport qilish oz bo'lsada amalga oshirilmoqda. Tovarlar kesimida paxta kalavasi, turli asboblari bor. Eksport xajmi 0,7 mln.dollar atrofida.

Afg'oniston bilan hamkorlik na faqat viloyat, balki mamlakat va halqaro darajada muhim ahamiyat kasb etadi. Surxondaryo viloyati ushbu hamkorlikni tashkil qilish va kengaytirishda o'ziga xos transport-tranzit-logistika markazi bo'lishi uchun barcha imkoniyatlar bor. Ushbu raqobat afzalliklaridan samarali foydalanish uchun Afg'onistondagi vaziyatni tezroq barqarorlashuvi lozim.

Viloyatni yirik transport logistika markazi bo'lishi uchun yana bir katta imkoniyat ochilishi arafasida turibmiz. Import qilingan tovarlar ichida Afg'onistondan sitrus mahsulotlari va ayrim mevalar, Turkmanistondan sement, benzin, oyna, karbamid, neft, Tojikistondan sement, sitruslar, alyuminiy, ko'mir, olma, keramik plitalarni ko'rsatish mumkin. Lekin ushbu import mahsulotlari ehtiyojga qarab o'zgarib turadi.

O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan taklif etilayotgan Termez-Mozori-Sharif-Qobul-Peshavor-Karachi temir yo'li qurilishi loyihasini amalga oshirish bo'yicha ma'lum ishlar olib borilmoqda. Temir yo'l uzunligi 600 km bo'lgan ushbu loyiha tovarlarni tashishni 35 kundan 3-5 kunga qisqartiradi. Konteynerlarni Toshkentdan Qarachi portigacha tashish xarajatlari 1,4-1,6 ming dollarni tashkil etadi. Ma'lumot uchun Eron porti Bandar-Abbos orqali yuklarni tashish 2-3 ming dollarga tushmoqda (1 ta konteyner uchun). Loyiha qiymati 4,8 mlrd.doll bo'lib, xozirda investorlarni jalb qilish jarayoni boshlangan.

Umuman viloyat transport geografik joylashuvi, tranzit salohiyati tashki iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil qilish, mamlakatning boshqa hududlari tadbirkorlarini qo'shni davlatlar bilan kooperatsion aloqa va esport-import operatsiyalarini yanada oshirishda o'ziga xos nisbiy afzalliklarga ega.

⁶ Manba: statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan



Surxondaryo viloyatining o'ziga xos afzalliklariga agroiqlim sharoitini ham ko'rsatish mumkin. Viloyat 4 ta agroiqlim zonasiga bo'linadi (Denau, Boysun, Bobotog', Surxon-Sherobod).

Denau zonası Guzar tog'lari janubiy qisimda joylashgan bo'lib Tojikiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Termik resurslar bo'yicha issiq zona bo'lib, 10°S dan yuqori temperaturalar yig'indisi 5000°S tashkil qiladi. Qishi yumshoq, yozi issiq (absolyut sovuq - 25°S, absolyut issik 47°S). Boy termik resurslar ushbu zonada subtropik o'simliklar o'stirish imkonini beradi. Bu yerda xurmoning 40 ta, anorning 90 ta turi va yong'oq yetishtiriladi. Mavjud agroiqlim yuqori xosildorlikka ega shakarqamish o'stirish uchun qulay.

Surxon-Sherobod zonası Surxondaryo va Sherobod vodiylarida joylashgan. Yuqori termik resurslarga ega (5200-6000°S). Qishi nisbatan issiq, sovuq bo'lmagan kunlar 240-270 kun atrofida, absolyut temperatura -23°S va-25°S. Yozi juda issiq (absolyut ko'rsatkich 48-50°S). Mavjud termik resurslar ushbu zonada ingichka tolali paxta, bog'dorchilik, uzumchilik, subtropik mahsulotlar yetishtirish uchun qulay imkoniyatlarga ega.

Bobotog' zonası viloyatning sharqida joylashgan, asosan tog' oldi yaylovlari mavjud bo'lib chorvachilikni rivojlantirishga mo'ljallangan.

Boysun agroiqlim zonası Janubiy sharda Boysuntau tog' yon bag'rida joylashgan. Termik resurslar 4600-5100°S. Qish yumshoq, sovuqsiz muddat 220-240 kun, yoz issiq va quruq. Temperatura maksimum 43-49°S. Past tog' yon bag'rida ingichka tolali paxta, ipakchilik, uzumchilik, bog'dorchilik uchun qulay sharoit shakllangan.

Umuman Surxondaryo viloyatining agroiqlimi, jumladan, termik resurslari O'zbekistonning boshqa xududlariga nisbatan subtropik mahsulotlar - anor, xurmo, anjir, shakarqamish va boshqalarni yetishtirishda o'z afzalliklariga ega. Shuningdek, termik resurslar yil davomida sabzavot, jumladan erta navlari, mevalar yetishtirishda ham ma'lum raqobat ustunliklari mavjud. Yana bir o'ziga xos afzallik maysa va ozuqa ko'katlaridan yil davomida o'rtacha 4-6-marta hosil olish mumkin. Iqlim sharoiti sug'oriladigan yerlardan 3-4-marta sabzavot va mevalar yetishtirish imkonini beradi.

4. Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqoti natijalariga ko'ra qo'yidagi xulosalarga kelindi.

1. Transport geografik joylashuvining afzalliklari avvalambor viloyatni tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish salohiyati (uchta xorij davlatlar bilan chegaradoshligi), eksport xarajatlarini nisbatan kamligi, global miqyosda Afg'oniston bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, dunyo okeanlariga chiqish bo'yicha transport koridorlarini tashkil qilishdagi o'rni va boshqalar. Shuningdek, ikkinchi tomondan viloyatni mamlakatning asosiy markazlaridan yiroqda joylashuvi ma'lum muammolarni keltirib chiqarishi va asosiy e'tiborni mahalliy lashtirishga qaratishni talab etadi.

2. Mavjud turizm salohiyatini xalqaro ahamiyatga ega ekanligi, ulardan oqilona foydalanish eng dolzarb bo'lib, xalqaro musulmonlar turizmini tashkil etish (Imom At Termiziy maqbarasi) o'ziga xos raqobat afzalliklariga ega ekanligini ko'rsatadi.

3. Arzon ishchi kuchi ham ma'lum darajada ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish omili bo'lib xizmat qiladi. Bunda asosiy e'tibor mahalliy yoshlarni ta'lim va mahorat darajalarini oshirishga urg'u karatilishi lozim.

4. Raqobat afzalliklari orasida viloyatda yillar davomida shakllangan agroiqlim sharoiti muhim o'rinni egallaydi. Ushbu omil oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, o'ziga mos bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni keskin ko'paytirish imkonini beradi. Birinchi galda bu subtropik mahsulotlar, mevalar va sabzavotlarning raqobatbardosh navini yetishtirish, ekologik toza tovarlar eksporti salohiyatini oshirishdan iborat.

6. Viloyatda suv va yer resurslarini ijobiy salohiyatidan tashqari ma'lum darajada ularni cheklanganligini ham aytib o'tish lozim. Bu o'rinda har bir qishloq tumanlarini, o'sish drayverlarini aniqlashtirish orqali mavjud raqobat afzalliklaridan samarali foydalanish mumkinligini ta'kidlab o'tish lozim.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

[2] Armstrong, J.Taylor. Regional economics and policy. 3 edition. WilleyBlackwell publisher, 2010.

[3] Hoover, Edgar M. and Giarratani, Frank, "An Introduction to Regional Economics" (2020). Web Book of Regional Science. 4

[4] Butov V.I., Ignatov V.G., Ketova N.P. (2000). Osnovy regional'noy ekonomiki: ucheb. posobie [The basics of regional economics: an educational guidance]. Moscow, Rostov-on-Don.

[5] Ermoshina G. P., Pozdnjakov V. Ja. (2011). Regional'naja jekonomika: ucheb. posobie [Regional economics: an educational guidance]. Moscow, Infra-M.

[6] Fetisov G. G., Oreshin V. P. (2006). Regional'naja jekonomika i upravlenie: Uchebnik [Regional economy and management: a textbook]. Moscow, Infra-M.

[7] Abdullayev I.S. "Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari doktori (DSs)dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent 2017.


[8] T.M. Axmedov. "Regulirovaniye territorialnoy organizatsii proizvoditelyx sil i kompleksnoye razvitiye regionov Uzbekistana". -T.: Fan, 1992.

[9] Кадыров А., АскарOVA M. i dr. "Regionalnaya ekonomika. Uchebnoye posobiye". - T.:Izdatelskiy dom Innovatsionnogo razvitiya, 2018 g.

[10] Садыков А.М. "O'zbekiston mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uni tartibga solish mexanizmlari". Iqt. fan. dok. diss.-T.: UzMU, 2006.

[11] Salimov B.T. "Modelirovaniye ispolzovaniya i razvitiya proizvodstvennogo potentsiala regiona". T.: O'qituvchi - 1995.

[12] Peter Mieszkowski and Mahlon R. Straszheim (eds.), Current Issues in Urban Economics (Baltimore: Johns Hopkins University Press, (1979).



[13] Axmedov T.M. "Regulirovaniye territorialnoy organizatsii proizvoditel'nykh sil i kompleksnoye razvitiye regionov Uzbekistana". -T.: Fan, 1992.

[14] Butov V.I., Ignatov V.G., Ketova N.P. (2000). Osnovy regional'noj jekonomiki: ucheb. posobie [The basics of regional economics: an educational guidance]. Moscow, Rostov-on-Don.

[15] Manba: Sh.Nazarov. Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv. Toshkent. 2021. 196b.

[16] Abdullayev I.S. "Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari doktori (DSs)dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent 2019.

Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Karimov
Dilshod
Abdumalikovich

Makroiqtisodiy va hududiy
tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: kda051980@mail.ru
Tel.: +998909010368
<https://orcid.org/0009-0001-9588-8916>

